KASHMIR ANKLAV SIFATIDA TORTISHUVLI JOYGA AYLANGANLIGI

Oripov Bahodir Olimjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti, tarix fakulteti, tarix yo‘nalishi
E-mail:bahodiroripov005@gmail.com.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19684486

Annotatsiya. *Kashmir mojarosi bugungi kun nuqtai nazaridan eng uzoq davom etgan va bahsli geosiyosiy mojarolardan biridir. Mazkur maqolada Kashmir mojarosining kelib chiqish sabablari uning yechimlari mutaxasislarning fikrlari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, mintaqada Hindiston – Pokiston – Xitoy uchburchagi manfaatlarining mintaqaga ta’sir etilganligi va mojaroning hal qilish uchun davlatlar qanday yo‘l tutganliklari yoritib berilgan. Tadqiqot davomida tomonlarning geostrategik manfaatlari, yadro qurollaridan foydalanish va barqarorlikni oshirish kabi ustuvorliklar ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kashmir mojarosi, geosiyosiy mojaro, geostrategik, anklav, dokolonizatsiya, demografik nazorat, irredentistik, diplomatik yo‘l, yadro qurollanishi, nazorat chizig‘i.*

Abstract. *The Kashmir conflict is one of the longest-lasting and most contentious geopolitical conflicts from today's perspective. This article examines the causes of the Kashmir conflict and the opinions of experts regarding its solutions. It also reveals the reasons why India, Pakistan, and China have sought to occupy the Kashmir region. The study focuses on how the interests of the India-Pakistan-China triangle have influenced the region and the approaches the countries have taken to resolve the conflict. During the research, the parties' geostrategic interests, the use of nuclear weapons, and priorities such as enhancing stability were considered.*

Keywords: *Kashmir conflict, geopolitical conflict, geostrategic, enclave, decolonization, demographic control, irredentist, diplomatic route, nuclear armament, line of control.*

Аннотация. *Конфликт в Кашмире с точки зрения сегодняшнего дня является одним из самых продолжительных и спорных геополитических конфликтов. В данной статье рассматриваются мнение специалистов о причинах возникновения конфликта в Кашмире и его возможных решениях. Также раскрываются причины, по которым Индия, Пакистан и Китай стремятся занять территорию Кашмира. В центре исследования освещено, как треугольник интересов Индии – Пакистана – Китая влияет на регион и какими путями государства пытались разрешить конфликт. В ходе исследования рассмотрены геостратегические интересы сторон, использование ядерного оружия и приоритеты повышения стабильности.*

Ключевые слова: *Конфликт в Кашмире, геополитический конфликт, геостратегический, анклав, деколонизация, демографический контроль, ирредентизм, дипломатический путь, ядерное вооружение, линия контроля.*

Kirish. Kashmir tog‘ tizmalari, cheksiz vodiylar va yer yuzidagi eng bahsli hududlardan birida joylashgan. XX asr o‘rtasida Buyuk Britaniya tomonidan ikki mamlakat orasida chegara belgilagandan buyon ushbu mintaqada Hindiston, Pokiston o‘rtasidagi zo‘ravonliklar avj olib kelmoqda. Kashmir hududida hanuz geosiyosiy mojarolar davom etib kelmoqda. Bu esa xalqaro munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi va mintaqada qo‘shni hududlarni bir-biriga dushman davlat bo‘lib qoladi. Xo‘sh

Kashmir qanday qilib bunchalik beqaror va global ahamiyatga ega masalaga aylandi? Bularning barchasini tushunish uchun Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi chegaralar birinchi marta chizilgan vaqtga qaytishimiz kerak. Ikkita jahon urushidan holdan toygan Britaniya uchun o‘nlab yillar davom etgan kurash avjiga chiqqan mamlakatni boshqarishga qurbi yetmaydi, chunki kengayib borayotgan diniy keskinliklar sababli Britaniya ularni bo‘lib tashladi. Shu tariqa hindlar yashaydigan Hindiston va musulmonlar yashaydigan Pokiston vujudga keladi. Tog`li hudud aholisi musulmonlardan iborat bo‘lgan Kasmir Hindiston tarkibida qoldirilganligi natijasida vaziyat ko‘p o‘tmay keskinlasha boshladi va davom etib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Kashmir masalasi bo‘yicha dastlabki ilmiy tadqiqotlar Hindiston - Pokiston o‘rtasidagi hududiy bahs va markaziy hudud munosabatlari nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Mridu Rai (*Hindu Rulers, Muslim Subjects*)[1:335] va Nyla Ali Khan muharrirligidagi *The Parchment of Kashmir [2:262]* kabi asarlar esa Kashmir identifikatsiyasi, “Kashmiriyat” tushunchasi va mintaqaning mustamlakachilikdan oldingi ijtimoiy-siyosiy tarixiga e’tibor qaratib, mojaroga madaniy-tarixiy yondashuvni olib kirdi. Ushbu yo‘nalish Kashmir aholisining o‘ziga xosligi va sinkretik madaniy merosini markazlashtirib, mojaroni faqat davlatlararo nizodan tashqarida ham ko‘rishga asos soldi.

Hindistonlik Bartholomeusz asarida [3:209] Kashmir majorasi ommaviy qonuniylikka asoslanmagan va majburiy tayinlangan, qo‘shilish hujjatlari, ya’ni asosnomalari noqonuniy bo‘lganligi deb aytib o‘tiladi.

Pokistonlik Khan va Xokharning fikrlariga ko‘ra, Pokistonning yondashuvi BMT Nizomining VI bobida belgilanadi, ushbu prinsipga ko‘ra, kuch ishlatishdan saqlanish kerak, shu bilan birga tinch yo‘llar bilan yechim izlash kerak deb aytgan[4: 581].

Chatterjening fikriga ko‘ra, ,,Human Rights Law Review’’ 370-moddani bekor qilinishi hindlarning huquqini konstitutsiyaviy o‘zgarishi sezilmagan, lekin demografik nazoratni mustahkamlagan va Kashmirdagi va’da qilingan avtonomiyani berishga qaratilgan strategik muhim joylashuvni ko‘rsatib beradi[5: 271].

Kashmir mojarosi to‘g‘risida ko‘plab musulmon hind olimlari o‘rgangan bo‘lib, bulardan Bukhari (2013) va Zia (2020) kabi tadqiqotchilar Hindistonning Qurolli kuchlari maxsus kuchlar ostida halok bo‘lishi, jinsiy zo‘ravonlik va ommaviy hibsga olishlar bo‘yicha ma’lumotlarni ko‘rsatib o‘tishgan [6:57].

Professor Maya Tyudorning ta’kidlashicha, Britaniyaning chegaralarni shoshilinch ravishda belgilash haqidagi qarori zo‘ravonliklarning kuchayishiga sabab bo‘lgan. Bu jarayonda turli jangari guruhlar va to‘dalar tomonidan talonchilik hujumlari hamda qirg‘inlar sodir etilgan. Diniy asosda keskin qutblashuv yuzaga

kelib, qo‘shnilar bir-biriga qarshi chiqdi va natijada shafqatsiz vahshiyliklar ro‘y berdi.

Kashmir yozuvchi va siyosiy faol Prem Bazaning “tarixda tasodifiy sharoitlar uyg‘unligi tufayli kichikgina Kashmir xalqi shunchalik mavqega ega bo‘ldiki, u ko‘plab xalqlarning kelajagini yaratishda yoki buzishda vosita bo‘la oladi [7:181 b] degan fikri Kashmir majorosi xalqaro muammolardan biriga aylanganligini ko‘rsatadi.

Myron Vayner aytganidek, ko‘p millatli jamiyatda resurslar yetishmovchiligi etnik harakatlanishga ta’sir etishi va etnik ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bunday talablar boshqa etnik mojarolarga yuzlashganda, davlatlar majburiy ravishda strategik murojaat qilishi mumkin. Kashmirdagi inqirozlarning bari Pokiston va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlarga taalluqlidir. Hindiston va Pokiston o'rtasidagi uch urushdan ikkitasi Kashmirning maqomi ustida bo‘lib o‘tgan. Pokistonning Kashmirga bo‘lgan irredentistik da'vosi, davlatning musulmonlar ko‘pchiligiga ega aholisi va geografik yaqinligiga asoslangan holda, ikki marta ushbu davlatni harbiy yo‘l bilan egallashga urinib ko‘rishga turtki bo‘lgan [8: 78 b].

Metodologiya. Ushbu maqolada Kashmir masalasining siyosiy-huquqiy jihatlari, xalqaro munosabatlar kontekstidagi rivojlanish bosqichlari va mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — mojaroning kelib chiqishi, rivojlanish dinamikasi va uni hal etish bo‘yicha ilgari surilgan mexanizmlarni kompleks tarzda o‘rganishdan iborat. Tadqiqotda tahlil usuli qo‘llanilgan. Ushbu usul mojaro ishtirokchilarining siyosiy pozitsiyalari, xalqaro tashkilotlarning hujjatlari va tarixiy jarayonlarni chuqur o‘rganish imkonini beradi. Tadqiqot quyidagi yondashuvlar asosida olib borildi: tarixiy yondashuv, huquqiy yondashuv, geosiyosiy yondashuv. Mojaro hududiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish imkoniyatining cheklanganligi tufayli, asosan ikkinchi darajali manbalar va ochiq rasmiy hujjatlarga tayanishga to‘g‘ri keldi.

Tahlil. Kashmir hududi Hindistonning eng shimoliy shtati hisoblanadi. XIX asr o‘rtalarigacha, Kashmir atamasi geografik jihatidan faqatgina Himolay tog‘lari va Pir Panjal tog‘ tizmasi orasidagi vodiyga tegishli bo‘lgan. Hozirda Hindiston tomonidan boshqariladigan Azad Kashmir va Gilgit-Baltiston avtonom hududlari hamda Xitoy tomonidan boshqariladigan Aksay Chin va Trans-Karakoram hududlarini o‘z ichiga olgan kengroq hudud tushuniladi.

Kashmir mojarosi 1947-yildan buyon davom etib keladi, o‘shanda Britaniya Hindistoni ikki qismga bo‘lingan, musulmon diniga e'tiqod qiluvchilar alohida davlat - Pokistonni tashkil etishgandi. O‘shanda chegaralar shoshilinch o‘tkazilgan, musulmonlar Pokiston hududiga, hindular va sikhlar Hindiston hududiga tartibsiz

ko‘chirilgan, bu jarayon qonli xunrezliklar bilan birga kechgan, yuz minglab kishilar halok bo‘lishgan, 12 milliondan ortiq kishi boshpanasiz qolgandi. Mamlakat ikkiga bo‘lingach, musulmonlarning uchdan ikki qismi Pokistonga o‘tgani, uchdan bir qismi Hindistonda qolgani ma'lum bo‘ldi. Musulmonlar yashovchi Kashmir o‘lkasi mustaqillik talab qila boshladi - tan olinmagan Kashmir o‘zini Pokistonning bir qismi sanaydi [7:183].

Kashmir masalasi bo‘yicha Hindiston va Pokiston o‘rtasida asosan **1947–1948, 1965** va **1999-yillarda (Kargil urushi)** yirik harbiy to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tgan. BMT tashkilotining aralashuvi ham shartnomalar urushning diplomatik tinch yo‘l bilan borishiga imkon bermadi. Buning natijasida Kashmir Hindiston va Pokiston uchun chuqur o‘zlik yoki kimlik masalalarni o‘zida mujassam etgan.



ource: http://www.cnn.com/2002/WORLD/asiapcf/south/06/07/india.pakistan/

Bu mojaroni o‘rganish uchun BMT xavfsizlik kengashi tuziladi. Bu esa Kashmirdagi vaziyatni o‘rganishga imkon yaratadi. Eng shiddatli urushlardan 1965-yili boshlanadi. Uzoq davom etgan urushlarda hech qaysi mamlakat g‘olib bo‘lmadi. Urush 1966-yil yanvar oyida Toshkent shahrida uchrashib, Toshkent deklaratsiya nomli kelishuv bitimi imzoladilar [9: 54-55]. Bitim tuzilganidan so‘ng, shu yili aprel oyida Toshkentda zilzila bo‘ladi. Bu esa davlatlararo diplomatik munosabatlar kelishuvini boshqa hududga ko‘chishiga olib keladi. Oxirgi yana bir urush 1971-yilda bo‘lib o‘tadi. Urush Kashmirning tashqi mojarosi orqali bo‘ladi. Mojarolar diplomatik yo‘l bilan hal qilingan bo‘lsada, hozirgi kungacha Kashmir hududi geosiyosiy mojaro sifatida qaraladi.

Kashmir hududini bo‘lish masalasi juda qiyin kechdi. Hindiston Milliy Kongressi (HMC) hind millati yaxlit hind millati ko‘pligi va Britaniya Hindlarni yagona mustaqil davlatga aylanish tarafdori bo‘lsa, Musulmonlar ligasi (ML) Britaniya bu hududda ikki davlat yaratish kerakligini, undan tashqari musulmon davlat bo‘lish kerakligini aytadi [10:66]. Natijada Musulmonlar ligasi partiyasi g‘alaba qozonadi. G‘arbiy va Sharqiy qismlarga bo‘linib ikki davlat paydo bo‘ladi.

Keyinchalik, bo‘linish qiyinchilik duch keltirib musulmonlar va sikhlarga ajralishi yuz beradi. Bu muammo hozirda global muammo hisoblanib, hududlarga yordam berish masalasida ham ancha dolzarb muammolarini keltirib chiqaradi. Agar davlatlar shu vaqtgacha aralashib bu nizoni to‘xtatganlarida, hozirgi kungacha geosiyosiy munosabatlari, ayniqsa Kashmir hududida barqaror munosabatlar shakllangan bo‘lar edi.

Ikkala davlatlar ham o‘z manfaatlari yo‘lida Kashmir hududiga da’vo qilganlar. Pokiston Kashmir hududini o‘zining tarixdan shakllangan hududi deb olgan. Bundan tashqari Kashmirliklarning ko‘pchilik aholisi musulmonlar bo‘lgani uchun hududga da’vo qilayotgani bejiz emasdir. Shu jumladan hindlar ulushi ko‘p emas, balki bir vaqtlar islomga kirgan hindlarning ta’siri katta bo‘lgani uchun hozirgi kungacha Kashmir hududida musulmon xalqi ko‘p.

Pokiston hududidagi Kashmir hududida Shimoliy va Azad Kashmir viloyatlari tashkil etilgan bo‘lsa, Hindiston hududida Jammu va Kashmir shtatining bir qismini egallagan. Shuningdek, 1962-yilda Kashmir hududining 10 foiz qismini Xitoyliklar bosib oladi. Bu hududda Aksay Chin deb ataladigan, 1963-yilda Pokiston roziligi munosabati bilan Xitoyga qo‘shib olingan Trans-Karakoram avtomagistralining bir qismiga ega bo‘ladi [11].

XX asr boshlarida isyonchi guruhlar yana ham qurolli harakatlari avj olib bormoqda. Buni yana bir asosiy sabablaridan biri Kashmir hududiga qo‘shni davlatlar harbiy lagerlari, qurollar bilan yetib kelishi natijasida mintaqada zo‘ravonlik separatist qurolli harakati kuchayib bormoqda. Ayniqsa Kashmir musulmon aholisini Pokiston va Afg‘oniston Tolibonlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi sababli, bemalol musulmonlar erkinlik ozodlik istab targ‘ibot va tashkiliy masalalarda qo‘llab quvvatlanib mustaqillik talab qilmoqda.

Mutaxasislarni e’tborga tortadigan jihati shuki Kashmir muammosini hal qilish uchun taklif etilgan variantlardan biri unga mustaqillik berishdir, ya’ni bunga ko‘ra bo‘linishidan oldingi Jammu va Kashmir maqomi tiklanib, mustaqil davlat tashkil topishi kerak. Bu taklif “Jammu va Kashmir Ozodlik fronti’’ rahbari Amanullahxon o‘z ilmiy ishlari, maqolasida - “Kelajakdagi mustaqil Kashmir Shveytsariya kabi, neytral bo‘lishi kerak, barcha qo‘shni davlatlar bilan aloqalari yaqin do‘stona munosabatlar bo‘lishi kerak’’ degan fikrlarni ilgari surgan. Agar mustaqil bo‘lsa beshta federal tuzilmadan tashkil topadi. Bularga Kashmir vodiysi, Jammu, Ladakh, Azad Kashmir, Gilgit va Baltistanni o‘z ichiga oladi. Front rahbarining so‘zlariga ko‘ra bunday davlat avtonom federal tarzda tuzilgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’muriy aloqlarni mustahkamlaydi [12:87]. Agar mustaqillik bo‘lmasa ham, Kashmir milliy, diniy mojarolar hamda etnik ziddiyatlarga duch kelmoqda.

Yagona mustaqil davlat yaratish uchun, xalqlarni birlikka chorlash juda muhimdir. Biroq xalq birlashmagan taqdirda ham hududning ichki ziddiyatlari milliy irqiy kamsitilishlar va etnik diniy mojarolar yo‘q bo‘lishi zarur. Mustaqil Kashmir hududi bo‘lgan taqdirda ham Hindiston uchun bir tomondan muammo hudud bo‘lib qoladi. Chunki davlatning hududiy etnik va diniy xavfsizligiga tahdid hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Kashmir hududining katta qismida tog‘lar borligi hisobiga, u hududda mineral, tabiiy jinslar va boshqa xomashyo mahsulotlari juda ko‘pdir. Bu hudud davlatlar orasida shakllanib paydo bo‘lgan bo‘lib, hozirgacha qo‘shni davlatlarda qiziqish ortib bormoqda. Qo‘shni davlatlarning siyosati bu hududga o‘z ta’sirini o‘tqizmoqda. Hatto urushga BMT xavfsizlik kengashi aralashgan bo‘lsa ham hozirgacha urush harakatlari to‘xtamayapti. Buni oldini olish uchun davlatlar diplomatik tinch yo‘llar bilan murosa olib borishi kerak. Hindiston uchun hudud juda noaniqligi ya’ni murakkabligi sababli boshqa davlatlar aralashishi natijasida ham mojarolar davom etmoqda. Bu hududda faqatgina chegaralarni aniqlash teritoriyani kengaytirish emas, balki etnik, diniy murosalar ham tobora murakkab tus olmoqda. Bunga yechim sifatida, Kashmirdagi vaziyatni mustahkamlash va chegaralar nazorat chiziqlarini davlatlar chegaralari sifatida e’tirof etishi kerak.

Kashmir masalasida Hindiston va Pokiston munosabatlari tarixiy katta ahamiyatga ega. Bularning hududiy, diniy, mintaqaviy muammolari hal qilish bo‘yicha amaldagi qarorlar ishlab chiqilmagan, ularni amalga oshirish uchun har ikki hudud bir tomonlama yondashish kerak. Agar mintaqada mojarolar tugaydigan bo‘lsa birinchi navbatda Janubiy Osiyo hududida tinchlik o‘rnatiladi. Hindiston va Pokiston uchun boshqa davlatlar cheklagan omillar bekor qilinadi. Bu esa tashqi savdo aloqalarida faol qatnashishiga imkon beradi. Shuningdek, davlatlarning ichki va tashqi ta’sirlari sezilarli darajada o‘zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rai, Mridu. *Hindu Rulers, Muslim Subjects: Islam, Rights, and the History of Kashmir.* Princeton University Press, 2004.
2. Khan, Nyla Ali, editor. *The Parchment of Kashmir: History, Society, and Polity.* Palgrave Macmillan, 2012.
3. Bartholomeusz, Tessa J. *In Defense of Dharma*. RoutledgeCurzon, 2002.
4. Mohsin, Z., Janjua, F. A., Irfan, A., & Khokhar, M. A. (2025*). Kashmir, the UN and Pakistan-India standoff: Revisiting international law and political will.* Journal of Asian Development Studies, 14(2)
5. Saroop, I. (2017). Incomplete decolonization and the right to self-determination: The case of Kashmir, Human Rights Law Review, 17(2),
6. Shamim, H. (2021). Why the world ignores Kashmir: Analyzing diplomatic failures. Journal of Global Justice, 12(3).

7. Wani, H. A., & Suwirta, A. (2013). *Understanding Kashmir conflict: Looking for its resolution.* SUSURGALUR: Jurnal Kajian Sejarah & Pendidikan Sejarah, 1(2)
8. Ganguly, S. (1996). Explaining the Kashmir insurgency: Political mobilization and institutional decay. International Security, 21(2)
9. Greeshma, G. (2015). Kashmir: A territorial dispute. International Journal of Interdisciplinary and Multidisciplinary Studies, 2(5)
10. Tankhilevich A.B. Problemy formirovaniya indiysko-pakistanskoy granitsy v khode razdela Pandzhaba v 1947 g [Problems in the Formation of the India-Pakistan Border During the Partition of the Panjab in 1947]. Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 13. Vostokovedeniye. 2011.
11. Полонский И. Кашмир: вечная война Северо-Западной Индии // Военное обозрение. 12.06.2014. URL: https://topwar.ru/51176-kashmir-vechnaya-voyna-severo-zapadnoy-indii.html
12. Мелехина Н.В. Пути и перспективы решения Кашмирской проблемы / И.В. Мелехина // Восток. – 2008.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Ядыкина Т.С. Многолетняя проблема Кашмира как ядро основного противостояния Индии и Пакистана: основные его периоды и последствия // Arkhont. 2020.
2. Полонский И. Кашмир: вечная война Северо-Западной Индии // Военное обозрение. 12.06.2014. URL: https://topwar.ru/51176-kashmir-vechnaya-voyna-severo-zapadnoy-indii.html
3. «Abadiy mavzu»: Pokiston, Hindiston, Xitoy hududiy nizolari qanday boshlangan? (xarita)// https://www.xabar.uz/uz/infografika/abadiy-mavzu-pokist. Qaraldi 30.03.2026